

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

G.Sh.Rixsiyeva

2025-yil "25" 06



SHARQ TILSHUNOSLIGI TARIXI
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000	– San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000	– Tillar
Mutaxassislik:	70230101	– Lingvistika (sbarq tillari bo'yicha)

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori:  Mirzaxmedova X.V.

Turkshunoslik oliy maktabi boshlig'i

 Aripov M.P.

ARM boshlig'i

 Yuldasheva M.M.

Fan/modul kodi ShTT1204	O'quv yili 2025/2026	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Sharq tilshunosligi tarixi	48	72	120
2.	I. Fanning mazmuni			
<p>Fanni o'qitishdan maqsad – Sharqda til bilimi (tilshunoslik)ning yuzaga kelishi va uning tarixiy taraqqiyoti va bosqichlari, o'tmisdagi yaratilgan tilshunoslik asarlari va ulardagi ilmiy fikrlar hamda kashfiyotlarni bo'lg'usi filolog mutaxassislariga o'rgatishdir.</p> <p>Fanning vazifasi – magistratura talabalariga sharq tillaridagi matnlarni, adabiy asarlarni o'rganish, ularni talqin va tahlil qilish, sharq tillaridagi klassik asarlarni o'rganishda yuzaga keladigan muammolarni hal etish masalalarini o'rgatishdan iboratdir.</p> <p>Xorijiy tajribaga muvofiqligi: Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Harvard University (ARWU-1) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi. https://scholar.harvard.edu/files/stefanhoefler/files/syllabus_ling_118.pdf?utm_source=</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. “Sharq tilshunosligi tarixi” fanining mazmuni, predmeti va metodi.</p> <p>“Sharq tilshunosligi tarixi” fanining maqsad va vazifalari. Fanning o'rganish doirasi va yo'nalishlari. Uning boshqa fanlar bilan aloqasi.</p> <p>Tatixiy tilshunoslik tadqiqot va asarlarini o'rganish va uni talqin qilishning zamonaviy metodlari.</p> <p>2-mavzu. Turkiy tilshunoslikning ilk bosqichlari.</p> <p>Yozuv va unga oid ixtirolar. Qadimgi turkiy yozuvlar – til bilimining ilk mahsuli sifatida.</p> <p>Qadimgi tilshunoslik. Tilshunoslik atamalar tizimining shakllanishi. Qadimgi turkiy bitig'larda qo'llangan tilshunoslik atamalari va ularning ma'nolari. Qadimgi turkiy bitig'larda qo'llangan turli sohalariga oid atamalar tizimi – o'sha davr tilshunoslik darajasini belgilovchi o'lchovdir.</p> <p>Islomgacha bo'lgan chog'larda yaratilgan lug'atlar va o'quv qo'llanmalaridan qolgan uzindilar – tilshunoslikning ilk namunalari sifatida.</p>				

3-mavzu. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asari – turkiy tilshunoslikning ilk yirik asaridir.

Tarixiy va qiyosiy tilshunoslikka kirish. Mahmud Koshg'ariy – ulug' tilshunos. "Devonu lug'ati-t-turk"ning tuzilishi; turkiy so'zlarning talqin prinsiplari. Turkiy adabiy til va shevalar haqidagi ma'lumotlar. Asardagi tilshunoslik atamaları va ularning talqini. Mahmud Koshg'ariyning tilshunoslikdagi kashfiyotlari. Asarning turkiy tilshunoslik tarixidagi o'rni.

4-mavzu. Mahmud Zamahshariyning "Muqaddimatu-l-adab" asari.

"Muqaddimatu-l-adab" va uning tuzilishi. Lug'atda arabiy so'zlarning talqin etilishi va ko'ptillilik masalasi: lug'atning arabcha-xorazmcha; arabcha-forscha; arabcha-turkiy; arabcha-forscha-turkiy-mo'g'uliy variantlari. Mahmud Zamahshariy lug'atining sharq leksikografiyasi tarixidagi o'rni

5-mavzu. Arab tilida turkiy tillarga bag'ishlab yaratilgan lug'atlar va ilmiy grammatik asarlar: "Attuhfa"

Mashur tilshunos Abu Hayyanning arab tilida turkiy tilga bag'ishlab yaratgan lug'ati va ilmiy grammatikasi; muallifi noma'lum "Attuhfatuz zakiyati fil-lug'ati turkiyya" asari;

6-mavzu. Arab tilida turkiy tillarga bag'ishlab yaratilgan lug'atlar va ilmiy grammatik asarlar: "Tarjuman"

"Kitab-i majmu-i tarjuman-i turkiy va ajamiy va mug'aliy" asari. Ushbu lug'atlarning tuzilish tamoyillari. Ularning turkiy til grammatikasiga bag'ishlangan bo'limlari.

Arab tilidagi lug'atlar va grammatik asarlarning turkiy tilshunoslik tarixidagi o'rni.

7-mavzu. Alisher Navoiyning tilshunoslik tarixidagi ulug' xizmatlari.

Navoiy asarlarida til va so'z, nutqqa munosabat. Navoiy asarlarining so'z boyligi masalasi. Navoiyning tilshunoslikka oid qarashlari.

8-mavzu. "Muhokamatu-l-lug'atayn"ning tilshunoslik tarixidagi ahamiyati.

"Muhokamatu-l-lug'atayn" risolasi. Risoladagi ilmiy masalalar: fonetika, semasiologiya, stilistika, morfologiya haqidagi fikrlari. Navoiyning turli oiladagi tillarni qiyosiy o'rganishdagi ilmiy yutuqlari. Navoiy tipologiya, lingvokulturologiya sohalarining asoschisi.

9-mavzu. Eski o'zbek tili (chig'atoy tili)ga bag'ishlab fors tili va turkiy tilda yaratilgan lug'atlar va grammatik asarlar.

Eski o'zbek tili (chig'atoy tili), xususan, Navoiy va uning zamondoshlari asarlarining so'z boyligi - turkiy tilshunoslik va lug'atshunoslik ob'yekti sifatida.

Fors va turkiy tillarda yaratilgan lug'atlar va grammatik asarlar.

"Abushqa" lug'ati. "Badoyeu-l-lug'at". "Lug'at-i Navoiy". Ularning tuzilish prinsiplari.

Mirzo Mehdoxonning “Sanglox” lug‘ati va “Maboniu-l-lug‘at” asarlari, “Maboniu-l-lug‘at” – eski o‘zbek tili grammatikasi sifatida.

10-mavzu. Mumtoz badiiy matnlarda qo‘llangan tilshunoslik atamaları va ularning sharhi.

Badiiy asrlarda ishlatilgan tilshunoslikka oid tushuncha va atamalar. Fonetika va grafikaga oid atamalar, ularning ilmiy sharhi; leksika va leksikologiyaga oid atamalar, morfologiyaga oid atamalar, sintaksisga oid atamalar va ularning ilmiy sharhi.

11-mavzu. Til taraqqiyotidagi o‘zgarishlar va ularning o‘rganilishi

Til tarixida tovush, morfema, leksik, semantik va sintaktik o‘zgarishlar va ularning o‘rganilishi

12- mavzu. Tilshunoslik tarixiga oid hozirgi ilmiy tadqiqotlar va lug‘atlar.

Hozirgi tilshunoslikda til va tarixiy tilshunoslik masalalarining yoritilishi. O‘zbek olimlari va chet elik olimlarning bu sohadagi ilmiy asarlari; ularning shathi.

Turkologiyada yozma yodgorliklarning so‘z boyligi bo‘yicha tuzilgan lug‘atlar; ularning tuzilish prinsiplari. O‘tmishda yaratilgan lug‘atlar va grammatik asarlarning hozirgi zamon nashrlari; ularning ilmiy sharhi.

Sharq tilshunosligi tarixini o‘rganish bo‘yicha fan oldida turgan vazifalar.

III. AMALIY MASHG‘ULOTLAR BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar “Sharq tilshunosligi tarixi” fanidan ma’ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg‘ulotlar mavzulari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo‘shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Fan bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ilk va o‘rta asrlarda yaratilgan tilshunoslikka oid yozma yodgorliklardan namunalar olib, ularni o‘qib o‘rganish.
2. Turkiy xalqlarning o‘ziga xos yozuv tizimi
3. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asari ustida ishlash; asarni chuqur tahlil qilish.
4. Qoraxiniylar davri asarlarida ishlatilgan tilshunoslik atamaları va ularning ma’nolarini tahlil qilish.
5. Mahmud Zamahshariyning “Muqaddimatu-l-adab” asari bo‘yicha ishlash.
6. Ilk o‘rta asrlarda turkiy tillar haqida arab tilida yozilgan grammatik asarlar va lug‘atlar, ularning tuzilish tamoyillarini tahlil qilish: “Attuhfa” misolida.
7. Ilk o‘rta asrlarda turkiy tillar haqida arab tilida yozilgan grammatik asarlar va lug‘atlar, ularning tuzilish tamoyillarini tahlil qilish: “Tarjuman” misolida.

8. Alisher Navoiyning “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asarini to‘liq o‘qib tahlil qilish; Navoiyning tilshunoslik tarixidagi ulug‘ xizmatlarini o‘rganish.
9. Turkiy til haqida fors tili va turkiy tillarda yaratilgan grammatik asarlar va lug‘antlarni o‘qish va ularning tuzilish tamoyillarini o‘rganish: “Abushqa” lug‘ati, “Badoyeu-l-lug‘at”, “Lug‘at-i Navoiy” misolida.
10. Turkiy til haqida fors tili va turkiy tillarda yaratilgan grammatik asarlar va lug‘antlarni o‘qish va ularning tuzilish tamoyillarini o‘rganish: “Sanglox” lug‘ati va “Maboniu-l-lug‘at” asarlari misolida.
11. Turkiy til haqida fors tili va turkiy tillarda yaratilgan grammatik asarlar va lug‘antlarni o‘qish va ularning tuzilish tamoyillarini o‘rganish: “Sangloh” misolida.
12. Hozirgi turkologiyada yaratilgan tarixiy tilshunoslikka oid asarlar, ilmiy lug‘atlarni o‘rganish.

IV. MUSTAQIL TA‘LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

- o‘tilgan mavzuni chuqur o‘rganishlari uchun darslik, o‘quv materiallari bilan faol ishlash;
 - ma‘ruza, amaliy mashg‘ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko‘rish, vaqtdan unumli foydalanish;
 - fan (modul)lar bo‘yicha mustaqil ta‘lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
 - mustaqil ta‘lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko‘chirmakashlik)ga yo‘l qo‘ymasligi;
 - kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta‘lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o‘ziga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarishi.
- Mustaqil ta‘limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*
- ijodiy ishni bajarish;
 - aniq mavzu bo‘yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
 - berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta‘rif va xulosalarni berish;
 - amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko‘nikmasini shakllantirish;
 - ilmiy maqola, tezislar va ma‘ruza tayyorlash;
- “Sharq tilshunosligi tarixi” fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan berilishi tavsiya etiladi:**
1. Tilshunoslikka oid asarni o‘qib o‘rganishning metod va usullari.
 2. Tilshunoslikka oid asarni o‘qib o‘rganish va tarjima qilishda ilmiy hamda nufuzli lug‘atlardan foydalanish prinsiplari.
 3. Tilshunoslikka oid asarni o‘qib, undagi polisemantizmlarni aniqlash; so‘z ma‘nolariga e‘tibor qaratish.
 4. Tilshunoslikka oid asarni ilmiy jihatdan tahlil qilish.

	<p>5. Tilshunoslikka oid asarni o'qib, atamalarni tahlil qilish.</p> <p>6. Tilshunoslikka oid asarni o'qib, uning tamoyillarini o'rganish.</p> <p>7. Tilshunoslikka oid asarning tarkibiy tuzilishini tadqiq etish.</p> <p>Talabalarni mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.</p> <p>Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMISda ilova qilish, shuningdek, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshliriladi.</p>
3.	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Magistrant bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - tilshunoslikka oid asarlarni tahlil etishning an'anaviy va zamonaviy usullarini <i>bilishi kerak</i>; - tilshunoslik asarlarining tarkibiy qismlarini bilishi va ulardan foydalana olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>. - tilshunoslikka oid asarlar bo'yicha tadqiqotlar olib borish, tilshunoslik asarlarini tahlil etish va talqin eta olishi; - tilshunoslik asarlarini tahlil etish asnosida mavzuga oid material to'play olishi; <p>tilshunoslikka oid asarlarni o'qib tushunish va ularni tahlil etish orqali tilshunoslikka oid qarashlarni, ilmiy atamalarni ona tiliga o'girish va talqin etishdagi o'ziga xosliklarni anglash <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.</p>
4.	<p>VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo'lib ishlash..
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p>VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Содиқов Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2017.</p>

2. Содиқов Қ. Тил тарихи: Илк ўрта асрларда туркий дунёда кечган лингво-маданий жараёнлар. Дарслик. – Тошкент давлат шарқшунослик университети, 2023. – 335 б.
3. Махмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк [Туркий сўзлар девони]. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. – Тошкент, 2017.
4. Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғатайн. Қосимжон Содиқов таҳлили, табибли ва талқини остида. – Тошкент, 2017.

Qo‘shimcha adabiyotlar

5. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. - Toshkent: O‘zbekiston, 2024.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023
7. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
8. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini uchun. –Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
9. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
10. Содиқов Қ. Алишер Навоий асарларининг тили (Фонетика ва морфология). – Тошкент: «Turon-iqbol», 2025.
11. Sodiqov Q. Qoraxoniylar davri turkiy yozma yodgorliklari tili. – Toshkent: «Akademnashr», 2025.
12. Sodiqov Q. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lig‘ati-t-turk” asari. – Toshkent, 2025.
13. Мирзо Мехдихон. Мабони ул-луғат. Форсийдан З. Умаров таржимаси. Нашрга тайёрловчи Х. Алимова. – Тошкент, 2008.
14. Умаров З. Мирзо Мехдихоннинг “Мабониу-л-луғат” эски ўзбек тили грамматикаси. Нашрга тайёрловчи Х. Алимова. – Тошкент, 2025.

Scopusdan maqolalar

15. Sadi Gedik. Kutadgu Bilig‘de Akla Dair Etkili Bir Anlatım Yolu Olarak Somutlaştırma // Turkish studies. 2020 Volume 15 issue 4. – S. 1837-1848. <https://turkishstudies.net/language?mod=tammetin&makaleadi=&makaleurl=8b484bb9-8916-481a-815e-2ec1d7db72b5.pdf&key=46998>
16. Osman Arıcan Toktogul Satılganov’un Şiirlerinde Karşıt Anlamlılık // Turkish studies. 2020 Volume 15. Issue 1. – S.45-65 <https://dx.doi.org/10.29228/TurkishStudies.39789>

Axborot manbalari

12. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
13. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarini ma‘lumotlari milliy bazasi.

	<p>14. http://forum.ziyouz.com/index.php?board=107.0 15. http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=767.</p>
7.	<p>Fanning o'quv dasturi Turkshunoslik oliy maktabida ishlab chiqilgan va 2025 yil "25" 06 dagi 21 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil "22" 06 dagi 11 — sonli bayoni bilan tasdiqlangan</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar: Sodiqov Q. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Turkshunoslik oliy maktabi professori, filologiya fanlari doktori.</p>
9.	<p>Taqrizchilar: Alimuxamedov R. – Otiyental universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori. To'laganova Sh. - Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Turkshunoslik makrabi o'qituvchisi, falsafa doktori (PhD).</p>